

## QADIMGI YUNONISTON VA RIM IMPERIYASIDA MUSIQA

*Amrullayeva O'g'iloy Hasanovna*

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Jismoniy madaniyat va san'at fakulteti*

*Musiqa ta'limi yo'nalishi talabasi*

*Ilmiy rahbar: Raxmatullayev Xumoyun Shafokatovich*

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Musiqa madaniyati va mahorati kafedrasi katta o'qituvchisi, dots.v.b.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yunoniston va Rim imperiyalarining musiqa san'ati keng yoritilgan bo'lib, musiqa asboblari, diniy marosimlar va uning madaniy hayotdagi o'rni keng tahlil qilinadi. Shuningdek, Qadimgi Yunoniston va Rim imperiyalarining musiqasi orqali ularning madaniy va ijtimoiy hayotini chuqurroq o'rganish, musiqaning zamonaviy musiqaga qanday ta'sir ko'rsatganligini haqida so'z yuritilgan. Qadimgi musiqaning asosiy elementlari, musiqiy asboblari, musiqiy nazariyalar va ijro uslublarini tahlil qilib, ularning ijtimoiy va diniy marosimlardagi o'rni va ahamiyatini o'rganish maqsad qilingan. Musiqaning Rim va Yunon madaniyati bilan aloqalari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Qadimgi Yunoniston musiqasi, qadimgi Rim musiqasi, musiqiy nazariyalar, diniy marosimlar, musiqa asboblari, falsafiy musiqiy qarashlar.

**Annotation:** This article provides an extensive overview of the musical art of Ancient Greece and the Roman Empire, examining musical instruments, religious ceremonies, and the role of music in cultural life. It also explores how the music of Ancient Greece and Rome reflects their cultural and social structures and discusses its influence on modern music. The study aims to analyze the main elements of ancient music, musical instruments, musical theories, and performance styles, as well as their significance in social and religious rituals. The article presents information on the connections between music and Greco-Roman culture.

**Keywords:** Ancient Greek music, ancient Roman music, musical theories, religious ceremonies, musical instruments, philosophical views on music.

**Аннотация:** В данной статье широко освещается музыкальное искусство Древней Греции и Римской империи, рассматриваются музыкальные инструменты, религиозные обряды и роль музыки в культурной жизни. Также анализируется, как музыка Древней Греции и Рима отражает их культурную и социальную структуру, и обсуждается её влияние на современную музыку. Целью исследования является анализ основных элементов древней музыки, музыкальных инструментов, теорий и стилей исполнения, а также их значения в

общественных и религиозных церемониях. В статье приведена информация о взаимосвязи музыки с греко-римской культурой.

**Ключевые слова:** музыка Древней Греции, музыка Древнего Рима, музыкальные теории, религиозные обряды, музыкальные инструменты, философские взгляды на музыку.

Qadimgi Yunoniston va Rim imperiyalari tarixda ilm-fan, san'at va madaniyat sohalaridagi yutuqlari bilan juda mashhurdir. Musiqa, ushbu madaniyatlarning ajralmas qismi sifatida, ularning ijtimoiy, diniy va ma'naviy hayotida muhim rol o'ynagan. Yunonistonning musiqasi nafaqat estetik jihatdan, balki falsafiy va ilmiy nuqtai nazardan ham yuqori baholangan, Rimda esa musiqaning jamiyatdagi o'rni va uning ijtimoiy hayotga ta'siri o'ziga xos shaklni olgan. Musiqaning o'ziga xos asboblari, musiqiy nazariyalar va marosimlarda o'ynagan roli qadimgi madaniyatlarning ma'naviy me'yorlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Musiqa nafaqat san'at shakli bo'lib, balki diniy marosimlar, bayramlar, jamoaviy tadbirlar, hatto siyosiy jarayonlarda ham muhim rol o'ynagan

Rimda musiqa san'ati nafaqat yuqori sinf vakillari, balki harbiy va mehnat sinflari orasida ham mashhur edi. Rimda musiqaning o'rgatish tizimi rivojlangan va musiqachilik malakalarini o'rganish uchun maxsus o'quv yurtlari mavjud edi. Rim musiqasi o'ziga xos bo'lib, ko'p jihatdan yunon musiqasidan ta'sirlangan, lekin ularning ijtimoiy va siyosiy strukturasi moslashgan. Rim musiqasi ko'pincha harbiy, bayramlar va teatr tadbirlarida qo'llanilgan.

Yevropa musiqa tarixining ilk davri aynan Qadimgi Yunon madaniyati rivoji bilan bevosita bog'liq. Antik musiqa madaniyati katta tarixiy davrni (miloddan avvalgi V asrdan, to milodning III asrigacha) qamrab oldi. Antik san'atda - hayotga irodalilik va muhabbat, hayotiylik, yerdagi drammatizm hamda garmonik insonni go'zalligi o'z ifodasini topadi. Antik san'atning mukammal mavzusi sifatida inson tanasi tanlangan. Antik tragediyalari esa san'atni sinkretik birligini gavdalab beradi<sup>1</sup>. Yunoniston musiqasi ko'p jihatdan matn bilan bog'liq bo'lgan. Musiqa va she'rlar bir-birini to'ldirgan va ko'pincha bir-biriga bevosita bog'langan. Yunonlarning mashhur epik poeziyasi, masalan, Gomerning "Illiada" va "Odisseya" asarlarida musiqaning roli muhim edi. Bu asarlarning ba'zi qismlari ko'pincha musiqa bilan ifodalangan. Bunday ijrolar esa jamiyatdagi ijtimoiy, diniy va madaniy ahamiyatga ega edi. Yunonlar musiqaning sehirli va ma'naviy kuchini qadrlashgan, va ularni diniy marosimlar, teatr, bayramlar va boshqa ijtimoiy tadbirlarda ishlatishgan.

Qadimgi Yunoniston va Rim imperiyalarining musiqasi, ularning madaniy va ijtimoiy hayotini o'rganishda muhim manba bo'lgan. Qadimgi musiqaning asosiy

<sup>1</sup> O.A.Ibrohimov, G'.M.Xudoyev.(2018). Musiqa tarixi. Toshkent. 14-bet.

elementlari, musiqiy asboblari, musiqiy nazariyalar va ijro uslublari, asosan, jamiyatning ijtimoiy va diniy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Qadimgi musiqaning diniy marosimlarda o'rni nihoyatda katta bo'lgan. Yunonlar uchun musiqa diniy ahamiyatga ega edi, chunki ular musiqani xudolarga qaratilgan ilohiy bir ifoda sifatida ko'rishgan. Masalan, Apollonga bag'ishlangan festivallarda musiqachilar va kuychilar xudolarga hurmat ko'rsatish uchun musiqiy asboblari ijro etishgan.

Rimda musiqaning diniy marosimlardagi roli ko'proq imperatorlar va yuqori sinf uchun ahamiyatli edi. Rimning "Saturnali" kabi bayramlarida musiqa jamiyatni birlashtirgan va imperatorlarning hokimiyatini mustahkamlashda yordam bergan. "Saturnali" bayramida musiqaning o'rni juda katta bo'lgan. Musiqachilar, qo'shiqlar va raqslar orqali bayram kayfiyati yaratilib, barcha qatlamlar uchun quvonch va xursandchilik manbai bo'lib xizmat qilgan. Bu bayramda musiqa jamiyatning barcha a'zolarini birlashtirgan, xususan, erkinlar va qullar o'rtasidagi farqlar vaqtincha yo'qolgan. Musiqaning quvnoq va xursandchilikni targ'ib qiluvchi ta'siri, odamlarni bir-biriga yaqinlashtirib, jamiyatdagi ijtimoiy ajralishlarni yengillashtirgan. Yunon faylasuflarining musiqa nazariyasi, musiqa tizimlari va musiqiy axloq haqida yozilgan tushunchalarning deyarli barchasi Pifagor va uning izdoshlari bo'lgan Ptolomey, Filodem, Aristoksen, Aristid va Platon kabi faylasuf olimlarning mehnat namunalari. Pifagorning musiqa haqidagi qarashlari matematik uyg'unlik qonunlariga asoslangan. Pifagorchilar musiqani o'rganishda, matematik va akustik bilimlarga e'tibor qaratishgan. Ular tomonidan qilingan kashfiyotlar zamonaviy akustika fanining asosi bo'lib xizmat qildi. Vaqt o'tishi bilan Pifagor va pifagorchilarning qarashlariga qarama-qarshi bo'lgan maktablar ham vujudga kelgan. Shunday, maktablardan biri Aristoksen ilgari surgan fikr va qarashlarga asoslangan bo'lib, bu maktab izdoshlari musiqaga matematik taraflama emas, eshitish va his-tuyg'ular asosida qarash kerak deb hisoblashgan. Yunon olimlari tomonidan musiqaning jamiyat va inson hayotida tutgan o'rni haqida juda ko'p fikrlar bildirilgan. Platonning fikriga ko'ra, "Davlatda musiqa o'zgarganda, uning boshqaruv tizimi ham o'zgaradi", "Musika va jismoniy tarbiya, maktab ta'limining asosiy bo'limlaridan bo'lishi kerak", deb hisoblagan. Boshqa qadimgi tamaddunlardan farqli o'laroq, qadimgi Yunonistonda cholg'u musiqasi, qo'shiqlardan alohida rivojlangan bo'lib, cholg'u ansablari diniy marosimlar, xalq bayramlari, festivallar va bazm kechalarida xursandchilik uchun, musiboqa va jang maydonlarida ruhiyatni ko'tarish uchun vosita bo'lib xizmat qilgan. Yunon bazmlari mayxo'rliksiz, turli she'rlarsiz va kichik teatr tomoshalarisiz o'tmagan. Bunday kechalarda mayxo'rlar, turli qahramonlar va Olimp ma'budlari sharafiga qadahlar ko'tarishgan. So'zga chiqqan notiqalar albatta, bir-ikki misradan shon-sharaf va tilaklar bildirishgan, bunday tilaklarga yunonlar "Spondey" deb atashgan o'ziga xos musiqa avlosi yoki fleyta cholg'ularida jo'r bo'lib turilgan. Ijtimoiy marosimlar, jumladan, bayramlar, to'ylar,

va boshqa jamoaviy tadbirlar musiqaning o'ziga xos xususiyatlari ko'p bo'lgan. Yunonlar, masalan, musiqani jamiyatni birlashtirish va estetik qadriyatlarni targ'ib qilish uchun ishlatishgan. Pifiy o'yinlari va Olimpiya o'yinlari kabi bayramlarda musiqaning roli juda katta edi. Bu bayramlar nafaqat sport tadbirlari, balki musiqiy tanlovlar va marosimlarni ham o'z ichiga olgan. Musiqa va she'rlar, ayniqsa, g'oliblarga bag'ishlangan qo'shiqlar orqali jamiyatda birlikni kuchaytirgan. Bayramlar davomida musiqachilar qo'shiqlar aytib, teatr va raqslar ijro etib, jamiyatni birlashtirishga xizmat qilganlar.

Qadimgi Yunoniston va Rimda kithara, aulos, lyra, tibia, tympanum, vibras kabi musiqa asboblari mavjud bo'lgan. Musiqa asboblari yunon va rim madaniyatlarida ko'plab diniy marosimlar, tanlovlar va teatr sahnalari uchun muhim bo'lgan. Aulos va kithara kabi asboblari marosimlar va teatrda ishlatilgan. Afsonalar orasida deyarli barcha musiqa cholg'ularining paydo bo'lishi yoki yaratilishi haqida ham hikoyalar mavjud bo'lib, quyida ular orasida eng keng tarqalganlarigina keltirilmoqda.

Gomerning mabud Hermesga atab yozilgan madhiyasida aytilishicha, Hermes toshbaqa qobig'i yoki kosasini o'rganib, undagi ajoyib aks-sado qaytish xususiyatidan ilhomlanadi va o'z akasi Apollonga tegishli bo'lgan muqaddas buqani o'g'irlab, buqa shoxlarini toshbaqa kosasiga joylaydi va unga tor tortib, eng birinchi lirani ixtiro qiladi. Liraning ajoyib tovushi Apollonga maqul tushgani uchun Hermes uni akasi Apollonga, o'z aybini yuvish uchun o'g'irlangan buqaga tavon sifatida sovg'a qiladi. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra Hermes lirani ixtiro qilganidan keyin, Zevsning o'g'li hisoblangan mohir musiqachi Amfeonga sovg'a qiladi.

Xulosa qilib aytganda, musiqaning qadimgi Yunoniston va Rim jamiyatlaridagi roli ularning diniy, siyosiy va ijtimoiy tizimlarida chuqur o'zgarishlar va rivojlanishlarga olib kelgan. Musiqa, bunday marosimlar va bayramlar orqali, jamiyatdagi ijtimoiy bog'lanishni kuchaytirgan, madaniy qadriyatlarni ifodalagan va odamlarning ruhiy holatini yuksaltirgan. Bu davrda musiqa nafaqat estetik zavq olish, balki jamiyatni birlashtirish va uni tartibga solishda muhim vosita bo'lgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O.A.Ibrohimov, G'.M.Xudoyev.(2018). Musiqa tarixi. Toshkent.
2. Сергеев В. С., История древней Греции, 3 изд. М., 1963.
3. История философии, т. 1, Н., 1957.
4. Тронский И. М., История античной литературы, Л., 1957.
5. Всеобщая история искусств, т. 1, М., 1956.
6. Гериман Т., Античное музыкальное мышление, Л., 1986.
7. Сулаймонова Ф., Шарк ва Фарб, Т., 1998.